

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**



**«ZAMONAVTY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN**



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

**PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**



**ANDIJON-2024. 10-IYUN**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”  
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024



Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

**Mas‘ul muharrir(lar):**

**f.f.n., prof. S.O.Solijonov**

**Tahrir hay‘ati:**

**f.f.d.prof. D.A.Rustamov**  
**f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev**  
**PhD. dots. M.A.Qurbonov**  
**f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov**  
**f.f.d.prof. V.A.Vositov**  
**PhD. dots. M.G‘.Xoshimov**  
**p.f.n. prof. Sh.S.Alimov**  
**PhD. G.M.Ibragimova**  
**PhD. Q.Umrzakov**  
**kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov**  
**kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova**

**Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:**

**A.A.Xomidov**

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

***To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.***

***Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil***

write down any new or important words they hear and then share them with the whole class. 5) Separate part of the board: record the words that appear during the class speech; mention the context. 6) Prepare the word box / bag: new words are written on small cards and added to the word box; the basis for the verification activity (definition, translation, sentences); activity on mutual testing of students (peer testing).

**A hint** a suggestion about something to be done indirectly. When you point to something, you suggest it indirectly. A hint is a form of helpful advice that usually tells you how to do something or do something. We use 'clues' when teaching new vocabulary, so 'clues are a way of presenting a word's definition and synonyms or antonyms rather than the word itself. is [4; 48]

Hints are often revealed and implemented during the months when participants pause to answer certain questions. We can see three ways of pointing: 1) a "50/50" sign that offers a half chance. For example: It is not black, but it may be brown. (bread). 2) the sign "Definition" that describes a concept or word. For example: An instrument for talking to someone far away (phone). 3) "Natural word" indication indicating the word used in the sentence taken from real and vital news or literary sources. For example: It is set up to regulate traffic on the streets.

The more diligently the students study the words, the more convinced that the dictionary is useful for them to achieve their goals in learning foreign languages.

#### References:

1. Luis. M. The Lexical Approach. Hove: Language teaching Publications. 1993.
2. Schmitt N., Jiang X. The relation between percentage of vocabulary knowledge and level of comprehension. The Modern Language Journal, 2010. 95, 1.
3. Vilkins D. A. Linguistics in Language Teaching. Australia: Edward Arnold. 1972.
4. Latibjonov A.A. Classroom sources of words: hints. Graduation project work. Republican scientific-practical center of developing the innovational methods for teaching foreign languages under the Uzbekistan state university of world languages. Toshkent, 2018.

### O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI NOVERBAL MULOQOTNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

**Mo'minov Siddiqjon Mirsobirovich**  
FarDU, filologiya fanlari doktori, professor  
**Kakharova Shohsanam Nabijon qizi**  
FarDu, tayanch doktorant

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada muloqot jarayonida noverbal muloqot vositalari va ularning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ jarayonning samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada noverbal muloqotning o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularning diqqatini dars jarayoniga



to'liq jalb qilish hamda o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirishiga qo'shadigan hissasini misollar yordamida yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** noverbal muloqot, imo-ishoralar, tana tili, pedagogik samaradorlik.

Insonlarning kommunikativ aktda noverbal muloqot vositalaridan foydalanishlari zaruratini keltirib chiqaruvchi bir qancha omillar bo'lib, ulardan birinchisi ba'zi yo'nalish, shakl yoki shaxsiyatni ifodalab beruvchi so'zlar qamrovining cheklanganligi. Ikkinchidan, noverbal muloqotning ta'sir kuchi nisbatan kengroq, ya'ni verbal muloqot ko'z ko'rishi mumkin bo'lgan narsalar bilan bog'liq bo'lsa, noverbal muloqot so'zlovchining ichki ifodalari bilan bevosita aloqador. Masalan, so'zlovchi ma'lum bir predmet haqida o'zining fikrlarini ijobiylikni ifodalovchi verbal vositalardan foydalangan holda bildirib turgan bir vaqtda uning noverbal xarakatlari bu izohni kinoya sifatida qo'llanilayotgani haqida ma'lumot beradi. Uchinchidan, noverbal xabarlarida tabiiylik yuqori darajada bo'ladi va aynan nutq jarayonida vujudga keladi. Verbal muloqotdan farqli ravishda noverbal muloqotni boshqarish murakkab jarayon hisoblanadi.

Noverbal muloqot mavzusining o'rganilish qamrovi keng soha bo'lganligi sababli qator olimlar bu masalada ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, tilshunos olim S.Mo'minov erkak va ayol bajaradigan vazifasi, ijtimoiy haq-huquqlari jihatidan bir-biridan farqlanar ekan, ularning muloqot xulqi ham o'z-o'zidan farqlanishini ta'kidlab, ayol va erkaklar muloqot xulqida qo'llaniladigan noverbal vositalar haqida batafsil ma'lumot berib o'tgan. [1,197]

Noverbal muloqot nafaqat kundalik muloqotning balki, o'qituvchilar va o'quvchilar ortasidagi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, imo-ishoralar, tana tili, yuz ifodalari, ovoz va jismoniy joylashuv kabi noverbal signallar o'qituvchi va o'quvchilar ortasidagi muloqotning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu komponentlar ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va hissiyotlarning samarali almashinuvini ta'minlaydi [2,34]. O'qituvchilarning noverbal xatti-harakatlari o'quvchilar bilan hissiy bog'lanishni mustahkamlaydi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi [3,431]. O'qituvchi kommunikativ aktda dominant vazifasini bajaradi, ya'ni muloqotni boshlash, davom ettirish va yakunlash vazifasi o'qituvchi zimmasida bo'ladi. O'qituvchilar o'zlari e'tibor bermasalarda sinfda noverbal vositalardan faol foydalanadilar. Albert Mehrabian olib brogan izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, muloqot jarayonida so'zlovchi nutqi 7 % verbal vositalar yordamida, 38 % ovoz yordamida hamda 55 % noverbal vositalar yordamida hosil bo'ladi. Shu ma'lumotga tayanadigan bo'lsak nutqda yuqori ko'rsatkichda noverbal vositalardan foydalanilar ekan, ularning ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan funksiyalariga ko'proq e'tibor qaratish muhimdir. Shunday qilib, dars jarayonida noverbal vositalar quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1. O'qituvchini verbal muloqot uchun sarflaydigan vaqtini qisqartirish.
2. O'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish.
3. O'zaro ishonchni oshirish.
4. Sinfda boshqaruvni ta'minlash.
5. Tushunmovchiliklarni oldini olish.
6. Dars samaradorligini oshirish.

Bu sohada qator izlanishlar olib borgan Tai, Negi hamda Malathi [4,5,6 ] kabi jahon olimlari o'z ishlarida ko'zlar vositasida ma'lumot almashishning ahamiyati haqida o'z fikr va mulohazalarini berib o'tishadi. Olimlarning fikriga ko'ra o'qituvchilar tomonidan mohirona qo'llanilgan ko'z aloqasi o'qitish jarayonini birmuncha osonlashtirib darsning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha ham ko'zlar vositasida aloqa almashish sinf muhitida alohida ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Masalan, agar o'quvchilar mavzuni tushunmasa bu holat ularning ko'zlarida yaqqol aks etadi va o'qituvchi buni ichki intuitsa orqali osonlik bilan sezadi. Natijada mavzu boshqa usulda, nisbatan sodda yoki misollar bilan boyitilgan holda qayta tushuntiriladi. Yoki aksincha o'rganuvchilar mavzuni yaxshi tushungan paytda ko'zlardagi qiziqish tuyg'usi o'qituvchiga yana ham yangi va qiziqarli ma'lumotlarni berishi kerakligi haqida belgi beradi. Bundan tashqari ko'z bilan aloqani dars davomida saqlab turish o'quvchilarda o'qituvchiga va u berayotgan ma'lumotlarga ishonch hissini oshiradi.

Zamonaviy ingliz baholash tizimida ham o'quvchilar bilimni baholashda ko'z aloqasini suhbat davomida saqlab turish yuqori natijaga erishish uchun xiamat qiladigan omil hisoblanadi. Shu sababli ham o'quvchilar bu jarayonga alohida tayyorgarlik ko'radilar.

Ingliz madaniyatidan farqli ravishda qadimgi o'zbek an'alariga muvofiq o'quvchi tomonidan o'qituvchining ko'ziga tikilib qarash, ko'z aloqasini saqlash salbiy holat ya'ni ustozga nisbatan hurmatsizlik ma'nosini bildirgan. O'quvchilar ustoz qarshisida tavoze bilan yerga qarab turishlari me'yor hisoblangan. Sadridin Ayniyning "Eski maktab" qissasidan olingan ushbu parchada ham bunga guvoh bo'lishimiz mumkin.

- *Sadriddin! – degan tovush eshitildi. Qayrilib qaradim. Meni domla chaqirar edi. Yo'limdan qaytib domlanning ro'parisida, unga ko'zimni tikkan holda to'xtadim.*

– *Qo'lingni qovushtir dedi domla, bir daraja rizosizlik bilan.*

Berilgan parchadan ma'lum bo'ladiki "ko'zini tikkan holda" turishi, ya'ni madaniy me'yor buzilishi domlanning "rizosizlik" igiga sabab bo'ldi.

Ko'z aloqasidan tashqari yana bir qancha noverbal vositalar borki ular bugungi kunda dars jarayonidagi muloqotning ajralmas tarkirib qismiga aylangan. Quyida biz eng ko'p qo'llaniladigan noverbal vositalarni keltirib o'tamiz:

Ishora	Tavsif
Tinglash	Quloq orqasida qo'l
Shovqinni to'xtatish	Qo'lni ko'tarish yoki chapak chalish
Yaxshi	labassum, bosh irg'ash yoki bosh barmog'ini ko'tarish
Noto'g'ri	Boshni qimirlatish yoki ko'rsatkich barmog'ini silkitish





Sharqiy Sohildagi katta konsalting kompaniyasining prezidenti norasmiy ishoralarning ahamiyatini quyidagicha ta'kidlaydi: O'ng qo'lini ko'tarib, ko'rsatkich barmog'i va bosh barmog'ini doira shaklida tutadi, so'ngra yangi xodimlardan ham shunday qilishni so'raydi. Hamma bosh barmoq doirasini yasaganida, prezident ularga ushbu doirani iyaklariga tegizishni aytadi, lekin o'zi bosh barmoq doirasini yonoqqa tegizadi. Natija nima bo'ladi? Guruh a'zolarining taxminan 80 foizi prezidentning aytganini emas (yonoqqa tegish), balki ko'rganini bajaradi [7,1]. Bu misoldan ma'lum bo'ladiki ko'pchilik odamlar rahbar rolidagi odamni kuzatishadi va uning harakatlarini beixtiyor takrorlashadi. O'qituvchi ham dars jarayonida rahbar rolini bajargani uchun u tomonidan qilingan har qanday harakat kuzatuv ostida bo'ladi va kata ehtimol bilan o'rganuvchilar tomonidan aynan takrorlanadi. Shuni hisobga olgan holda o'qituvchining noverbal vositalarni qo'llashdagi bilimlari ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, noverbal muloqotning ta'lim jarayonidagi ahamiyati alohidalik kasb etadi. O'qituvchilar noverbal signallarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshirishi, diqqatni jalb qilishi va o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam berishi mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayonida noverbal muloqotning roli va ahamiyatini chuqurroq o'rganish va tadqiq qilish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo'minov, S. (2021). *O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy hususiyatlari*. Farg'ona. 197-bet.
2. Mehrabian, A. (1971). *Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes*. Wadsworth Publishing.
3. Ambady, N., & Rosenthal, R. (1993). Half a Minute: Predicting Teacher Evaluations From Thin Slices of Nonverbal Behavior and Physical Attractiveness. *Journal of Personality and Social Psychology*, 64 (3), 431-441. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.64.3.431>
4. Tai, K. (2014). The Importance of Nonverbal Communication in Classroom. *Journal of Educational Sciences*, 10(2), 136-147.
5. Negi, J. S. (2009). The Role of Teachers' Non-Verbal Communication in ELT Classroom. *Journal of NELTA*, 14(1-2), 101-110.

6. Malathi, S. (2013). The Impact of Nonverbal Communication in Teaching. International Journal of Education and Psychological Research, 2(2), 123-130.
7. White, M. (2000). The Impact of Nonverbal Communication in Leadership. Leadership Quarterly, 11(1), 1-15.  
[https://doi.org/10.1016/S1048-9843\(99\)00034-7](https://doi.org/10.1016/S1048-9843(99)00034-7)

## CHE TILI O'RGANUVCHILARIDA KUZATILADIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULAGNING ECHIMLARI

**Raimjonova Mushtariy**

Roman-german va slavyan tillari fakulteti  
filologiya va tillarni o'qitish: arab tili yo'nalishi  
1- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** chet tilini o'rganuvchi yoshlarga maqsad qilingan til doirasida yuzaga keladigan so'zlashuvdagi xatolarini ko'rsatish va bu muammolarga yechim topish.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, imkoniyat, talaba, tarbiya, chet tili, jarayon, so'z, tajriba, kasb, maqola, og'zaki nutq, e'tibor

**Abstract:** to show young foreign language learners the mistakes in speech that occur within the target language and to find solutions to these problems

**Keywords:** education, opportunity, student, upbringing, foreign language, process, word, experience, profession, article, oral speech, attention

2024-yil Davlatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingani biz yoshlarni juda ham mamnun qildi. Zotan, 2023-yil ham Davlatimiz rahbari tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlangani va bu yuzasidan yurtimizda yoshlar va talabalar uchun qator imkoniyatlarga yo'l ochib berilgani hech kimga sir emas. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning biz yoshlarga taqdim etayotgan bu kabi yuksak e'tiborini e'tirof etgan xolda bunga mos javob berish maqsadida o'zimiz va jamiyat uchun foydali bo'lgan chet tillarini o'rganishga bel bog'ladik.

Men o'zim kabi chet tillarini o'rganayotgan va til o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelayotgan yoshlarga tajriba va bilimimdan kelib chiqqan holda ba'zi maslahatlarni keltirib o'tishni joiz deb bildim.

Ushbu maqola orqali chet tilida so'zlashishda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari haqida o'z fikrlarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

O'zim arab tilida dars berayotgan o'quvchilarimdan misol qilib ayta olamanki, chet tilida so'zlashish jarayonida kuzatiladigan qiyinchiliklardan biri bu gap tarkibidagi qo'shimchalarning tushib qolishi va ba'zan maqsad qilingan gap ma'nosidan boshqa ma'nodagi gapni so'zlash bilan bo'ladi.

Avvalo o'quvchining chet tilida gaplashishida o'rganilayotgan til grammatikasini bilishi va so'z boyligi juda muhim. Yana yoshlarga jumladan til ihlosmandlariga badiiy asarlarni ko'proq mutolaa qilishlarini maslahat berishimiz



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	<b>Yaqubova Mahbubaxon Mamatismailovna</b>	
150.	<b>CHET TILI O'RGANISHDA IZOHLI LUG'ATLAR QO'LLANISHI</b> Muxayyoxon Axmedova	471
151.	<b>Инглиз тилини ўқитишнинг таъмоийллари ва ёндашувлари</b> Г.Б.Зайнобиддинова	473
152.	<b>SOME INVENTION STRATEGIES IN IMPROVING WRITING SKILL</b> Abdulazizova Sevara Ganiyevna	477
153.	<b>MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH</b> BUGUNGI KUN TALABI O'rinboyeva Guluzro Dushayevna Raimjonova Mushtariy	479
154.	<b>MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH</b> Khatamova Zulaykho Kuchkarovna	483
155.	<b>TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b> Xusenova Ibodat Ikrom qizi Razakova Shahnoza Dusmatovna	486
156.	<b>O'QUVCHILARNI CHET TILIDA NUTQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TILSHUNOSLIKNING O'RNINI</b> Rayxona Xasanova Shaxnoza Razakova	488
157.	<b>XORIJIY TILLARNING RIVOJLANISHI VA ULARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b> Pulatova Iroda Shuhrat qizi Shahnoza Razakova	491
158.	<b>SOURCES OF WORDS AND HINTS IN TEACHING VOCABULARY</b> Latibjonov Azamjon Akramovich Chang Ming	494
159.	<b>O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI NOVERBAL MULOQOTNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI</b> Mo'minov Siddiqjon Mirsobirovich Kakharova Shohsanam Nabijon qizi	496
160.	<b>CHET TILI O'RGANUVCHILARIDA KUZATILADIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULAGNING ECHIMLARI</b> Raimjonova Mushtariy	500
161.	<b>MASTERING ENGLISH PHRASEOLOGY: BRIDGING THE GAP TO NATIVE SPEAKER PROFICIENCY</b> Inamova Marina Timurovna	501
162.	<b>Gamifying Listening and Comprehension Skills: Effective Strategies for English Teachers in Uzbekistan</b> Dr. Ravindra Kumar, Alisher Sidikov Uktamjonovich	506
163.	<b>BASIC PRINCIPLES OF INQUIRY BASED LANGUAGE LEARNING</b> Yo'ldosheva Sevara Alisher qizi	512
164.	<b>THE IMPORTANCE OF USING BODY LANGUAGE DURING SPEAKING</b> Aliyeva Mahliyo Mashrab qizi	515